



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

OG'IR NUTQ KAMCHILIGINI BARTARAF ETISHDA

MUTAHASSIS VA OILA HAMKORLIGI

Raximova Xurshidaxon Sadikovna

Qo'qon DPI "Inklyuziv ta'lim" kafedrası

mudiri dotsent, PhD

surdopedagog.akbarova@mail.ru

Nurova Shahruzaxon

Abdullayeva Halimaxon

Axmedova Maftunaxon

Teshaboyeva Muhlisaxon

Marajabova Mohiraxon

Qo'qon DPI surdopedagogika yo'nalishi 4 – bosqich talabalari

Annotatsiya:

Mazkur maqolada nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan korreksion ish olib borishda logoped va oilaning hamkorligi, og'ir nutq nuqsonini bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: dizartriya, logoped, nutq nuqsoni, harakat, homiladorlik vaqridagi patologiya, serebral falajlanish.

Ota – onaning orzusi ushaldi. Dunyoga kelganligidanoq barchaning ko'nglini quvonchga to'ldirib, oilaning kelajakdagi umidi bo'lmish farzand dunyoga keldi. Necha – nechalab xavotirda o'tkazilgan bedor tunlar-u, orzu –umidlar, intilishlar samarasi o'laroq u voyaga yetdi. Bir vaqtlar unga umid nigohini tikkan ota – onasi



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

hamda yaqinlari uchun ishonchli tayanch bo‘la oldi. Ammo har doim ham shundaymi?

Afsuski, hayot biz o‘ylaganimizdek doim ham bir tekis maromida kechavermaydi. U bizning oldimizga shunday to‘siqlarni qo‘yadiki, barchamiz ham ularni yengib o‘tish uchun sabr – toqat va bardosh yetishmay qolishi mumkin. Atrofimizda shunday insonlar borki, ular bizning yengil odmimiz – mushkul vazifa, nazarimizda uzatsak har qayoqqa bemalol yetguvchi qo‘llarni osongina uzatish – amri mahol, bizga arzimadek tuyulgan bir soniyalik suhbat - qiyin bir ishdur.

Bunga sabab bo‘lib kichkintoyini o‘z iskanjasida ushlab turgan turli jismoniy va ruxiy muammolar bo‘lishi mumkin. Ana shunday muammolardan biri bu – bolaning nutqidagi kamchilikdir.

Insoniyatning rivojlanish tarixida unga hamrox bo‘lib kelayotgan nutq kamchiliklari turlichadir. Ularning keng ko‘lamliligi hamda bolaning umum rivojlanishiga ko‘rsatadigan salbiy ta‘sirini e‘tirof etadigan bo‘lsak, xatto dunyoni larzaga keltiruvchi tabiiy ofatlarning zarari ham insoniyat nutqiy kamchiliklardan ko‘riladigan ma‘naviy talofatlaridan ham ko‘ra unga qimmatroqqa tushadi.

Nutqiy yetishmovchiliklar orasida dizartriya eng og‘ir nutq kamchiligidir. Dizartriya so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, “aniq talaffuz qilishning buzilishi” ma‘nosini beradi. Bunday kamchilikka ega bo‘lgan bolaning nutqi tushunarsiz, atrofdagilarda xuddi bola og‘zi to‘la ovqat bilan gapirayotgandek taassurot uyg‘otadi. Dizartriya tushunchasi juda keng qamrovlidir. U asab tizimidagi yengil zararlanishlar oqibati va miyaning og‘ir jaroxatlanishlar va kasallanishi tufayli ham kelib chiqishi mumkin, ammo dizartriyaning kelib chiqishini birgina noxush



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

holat bilan bog'lash noto'g'ri bo'lar edi. Aksariyat hollarda ushbu kamchilikni kelib chiqishiga qator noxush holatlar majmui sabab bo'ladi.

Dizartriya ko'pgina xollarda bolalar serebral falaji xastaligining asorati sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra butun dunyo aholisining o'n foizini alohida yordamga muxtoj insonlar tashkil etar ekan. Ularning salmoqli qismini serebral falajlanish kasalligiga chalingan insonlar tashkil etadi. Bu mudxish dardning to'liq nomi bolalar serebral falajligidir. Eng ayanchli tomoni ushbu xastalik go'dakka ilk kunlaridanoq hamrox bo'lib, uning butun hayot chizig'ining o'zgacha tortilishi, bola taqdirining chigal ko'rinish kasb etishiga sabab bo'ladi.

Ushbu xastalik sabablarini homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan so'ng yuzaga keluvchi xolatlardan qidirish lozimdir. Homiladorlik davridagi, ayniqsa uning birinchi uch oyligida og'ir toksikozlar, bo'lajak onaning infeksiya kasalliklarga chalinishi, homilaning zaxarlanishi, ona va bolaning qon rezuslari o'rtasidagi nomuvofiqlik, tug'ruq vaqtidagi miyaning jaroxatlanishi, tug'ruqning tez yoki uzoq kechishida ko'rish mumkin. Bolaning vaqtdan ilgari tug'ilishi, yoxud irsiy faktorlar bolada serebral falajlanish sodir bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Bu xastalik bitta zararli ta'sir emas, balki ularning bir nechtasining yig'indisi oqibatida yuzaga keladi. Xususan hayotda shunday manzarani kuzatish mumkin: ikki yosh turli to'siqlarni yengib o'tib, turmush qurdilar. Yangi oila yuzaga keldi. Ammo kelinchak o'z turmush o'rtog'ining amakivachchalarida asab kasalliklar borligidan bexabar edi. Kuyov bo'lmishning ham sog'lig'i xavas qilsa arzugulik emas. Shu orada kelinchakning homiladorligi bilindi, ammo kelinchakni sog'lom desak xato bo'lar. Aksiga olib homiladorlik davri og'ir boshlandi. Shifokorlarning maslaxatiga ko'ra davolanish uchun kasalxonaga borishi lozim



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

boʻlgan kelinchak qaynonasining “odil xukmiga” koʻra uy ishlariga shoʻngʻidi. Toʻyib ovqatlanmaslik, kelinchakdagi madorsizlik, uyquning yetishmasligi hamda yangi uyda bitmas – tunganmas mehnat oqibatida goʻdak vaqtdan avval dunyoga keldi. Taqdir taqozosi bilan tugʻruqxonada oʻsha kuni tajribasiz doya navbatchi edi, kelinchakning oʻzi ham bu borada undan qolishmasdi. Buning oqibatida tugʻruq ogʻir kechdi. Dunyoga kelganini jarangdor ovozi bilan bildirishi lozim boʻlgan goʻdakning ovozi hech kim eshitmadi. Uning xatto zaifgina yigʻlash uchun ham xoli yoʻq edi. Uning farzandi xastalik oqibatida tengdoshlar safini toʻldirib yugura olmasligini, bogʻchadan oʻrganib kelgan sheʻri bilan oiladagilarni xursand qila olmasligini tasavvuriga ham sigʻdira olmas edi. Bunday ayanchli holat aniqlangan maʼlumotlarga koʻra kuniga 900 dan oshiq onaning qismatiga yoziladi, har kuni 900 dan oshiq goʻdak aynan bolalar serebral falajlanishi bilan tugʻiladi, har kuni ushbu saf 900 taga koʻpaymoqda. Dizatriyada bolaning butun ogʻiz boʻshligʻi aʼzolarining xarakatchanligi susayishi tufayli bolaning nutqi ogʻir xollarda umuman imkonsizligidan tortib, to yengil koʻrinishdagi umum talaffuzning buzilishigacha boʻlishi mumkin. Dizatriyaning oʻziga xos tomoni shundan iboratki, bunda barcha tovushlar talaffuzi buzilgan boʻlib, nutq ravonligi va surʼatida ham yetishmovchiliklar kuzatiladi. Ammo kamchilik qanchalik ogʻir boʻlmasin, imkoniyat doimo saqlanib turadi. Ota – onaning saʼiy – xarakatlari, mutaxassislarning oʻz vaqtida hamda malakali yordamlari bolaning uni goʻzal olam sariishonchli qadam qoʻyishini tezlashtiradi va taʼminlaydi.

Albatta bunday bolalarning tengdoshlar kabi bogʻchaga borishlari, keyinchalik esa, savodni egallashlari – ilk xusnixatlari va oʻqigan sheʼrlari bilan oʻz ota- onalarini xursand qilishlari mushkul vazifa, lekin u bajarib boʻlmaydigan



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

ishlar sirasiga kirmaydi. O‘z vaqtida muammoni aniqlash, bolaga to‘g‘ri belgilangan tibbiy muolajalar bilan birgalikda logopedik ta‘sir natijasida bola maktabga borishi, ilm cho‘qqilarini zabt etishi mumkin. Zero dizartriya aziyat chekayotgan aksariyat bolalar aqliy jihatdan muammoga ega bo‘lmaydilar. Albatta nutqiy muammolar hamda falajlanish oqibatida ayrim bolalarda aqliy rivojlanishda ayrim noqisliklar kuzatilishi mumkin, ammo ularning asosida yuqoridagi kamchiliklarning yotganligini hamda ushbu muammoni yengib o‘tish mumkin emasligini unutmaslik lozim.

Xo‘sh dizartriya bolaning qismatida katta so‘roq belgisini qo‘yishiga sabab bo‘la oldimi? Nahotki ularning axvollarini biroz bo‘lsa ham yengillatish, ularni ham o‘qish, ilm olishga jalb etish mumkin bo‘lmasa?

Ushbu holatda Lorimerning so‘zlarini eslash joizdir: “Sustkashlik oson ishni qiyinlashtiradi, qiyin ishni esa umuman bajarib bo‘lmaydigan xolga olib keladi”. Dizartriya keltirib chiqaruvchi sereboal falajlanishxastaligini o‘rganish natijasida uning og‘irlashishga moyil emasligini aniqlangan. Ya‘ni xarakatdagi muammoli holat bir ko‘rinishda og‘irlashmasdan turish xarakteriga ega. Bu esa bolalar bilan juda ko‘p narsaga erishish imkonini beradi. Ammo buning uchun ota-onadan sabr-bardosh, uquv va matonat talab etiladi.

Biz ota-ona deganda xato qilmadik, zero aynan ular bolaning taqdirini hal etishlari mumkin. Aynan ularning sa‘yi-xarakatlari ila farzandlari o‘z tengdoshlari kabi o‘qish, biror kasb egasi bo‘lish, hayotda birovning qaromig‘ida emas, balki o‘z kuchlariga ishonib yashash baxtini berishi mumkin. Albatta biz bu bolalar bilan shug‘ullanuvchi shifokorlar va logopedlarning o‘rni inkor qilishdan ancha yiroqmiz, lekin shu bilan birga qars ikki qo‘ldan chiqishini eslatishni joiz deb hisoblaymiz. Harakat a‘zolarida og‘ir muammolarga ega



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

bo'lgan dizatrik bolani tarbiyalayotgan ota-ona har doimgidanda o'n hissa ko'proq ma'suliyatli desak xato qilmaymiz. Agar ma'lum sabablarga ko'ra siz aynan shu holatda bo'lsangiz quytdagi maslahatlarimiz aynan siz uchun.

Avvalambor tushkunlikka tushmang. Doimo o'z farzandingiz kelajagiga umid bilan boqing. O'zingizni, farzandingiz va oilangizdagilarni shunga ishontiring.

- Doimi ravishda farzandingizni shifokorlar ko'rigidan o'tkazib, zarur muolajalarni olib turing. Mutaxassis tomonidan o'z vaqtida, to'g'ri va muntazam olib borilgan davolovchi masaj va jismoniy tarbiya farzandingiz xarakatlarini jonlantiradi. Logoped xarakatlari asosida uning nutqi yanada aniqroq shaklda namoyon bo'ladi.

- Unutmang, u tomonidan dunyoni idrok etilishi jarayonida siz asosiy xamkorsiz. Bolaga hodisalar va xarakatlarni tavsifini berishga, uni xususiyatlarini tushuntirishga o'rgating.

- Sizning farzandingiz xarakatlar qo'pol va anglanmaganholda bo'lishi mumkin, ko'p xarakatlar unda qiyinchiliklar tug'diradi, lekin bu bola xarakat qilmasligini belgilamaydi. bola imkoniyat buzo'ziga xizmat qilishga o'rganishi kerak. Bugun u qoshiq ushlolmasligi, sochini taray olmasligi, tugmasini qaday olmasligi mumkin, siz uni taro k bilan sochini tarashga yarim soat mobaynida o'rgatmasangiz u holatni o'zlashtirish mumkin emas.

- Farzandingiz qo'l xarakatlarini uy sharoitida hali rivojlantirishingiz mumkin. Bunda siz ...sodda bola qo'li va barmoqlari ichki tomonini yengil silashingiz kerak. bolada rasm chizish, plastilin bilan yasashga qiziqish uyg'otish lozim. Bu faoliyat bolani nafaqat xarakatchanligini rivojlantirishga, balki uni ma'naviy rivojlantirishga ham turtki bo'ladi.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

- Badiiy adabiyotlarni ko‘p mutoala qilib bering! Bolada o‘qishga qiziqish uyg‘oting.
- Bolani maktab ta‘limiga tayyorlang. U bilan atofdagi hodisalar, voqealar haqida suxbatlashing, uni bilim doirasini kengaytiring. Bolada “chap va o‘ng”, “past va tepa”, “oldi va orqa” tushunchalarini shakllantiring. Kunda bolaning chap va o‘ngda joylashgan tana a‘zolari yordamida o‘rgatish ijobiy samara beradi.
- Bolani qo‘liga qalam berishga qo‘rqmang. Bugun u qalamni qiyinchilik bilan ushlashi, ertaga shu xarakterlar asosida bolaning o‘zi qalamni ushlashga xarakter qilishi mumkin.

Xar bir ota – ona bu maslaxatlarni amalga oshira oladi, muhimi ushbu maslaxatlar natijasiga ishonish kerak. Unutmang, sizni va farzandingiz qat‘iy ishonchi barcha xarakterlarning samarasini belgilaydi. Unutmang, hozir farzandingiz dunyoni sizning ko‘zlarinigiz bilan ko‘radi, farzandingiz kelajagi uchun sizning xarakterlaringiz zamirida yo‘lchi yulduz bo‘lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аюпова М.Ю. Логопедия (дарслик). Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти. Т-2011.
2. Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2003.
3. Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 671-675.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

4. Sodikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Preparation of preschool children with cochlear implants for independent learning." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 159-161.
5. Sodikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Use Of Innovative Technologies In The Formation Of Speech Skills In Children With Hearing Disabilities." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
6. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea* 3.03 (2023): 188-192.
7. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY, MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
8. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
9. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
10. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

11. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan.
"ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
12. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy.
"PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
13. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra.
"FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
14. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola.
"PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
15. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
16. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Faxriddin To'ychiboyev. "MAXSUS EHTIYOJLI BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASIDAGI TENG HUQUQLILIK MUAMMOSINI HAL ETISHDA INKLYUZIV TA'LIMNI AHAMIYATI." *Инновационные исследования в науке* 2.5 (2023): 27-33.
17. Madinakhan, Makhmudova, and Abduvahobova Irodakhan.
"PECULIARITIES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." (2023).



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

18. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.1* (2020).
19. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository 4.3* (2023): 134-141.
20. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea 5.05* (2023): 299-302.
21. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Isodullayeva Iqboloy. "PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH ACTIVITY." *Open Access Repository 4.3* (2023): 765-771.
22. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea 4.04* (2023): 187-192.
23. Эркабоева, Нигора, et al. "Педагогик маҳорат: схема ва расмларда." *Т.: "Наврўз* (2012).
24. Erkaboeva, N., et al. "Pedagogical skills: in diagrams and pictures: Methodical manual." *Tashkent: TDPU named after Nizami 14* (2012).
25. Эркабоева, Нигора Шерматовна. "ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ." *Ученый XXI века 4-1* (2016).
26. Xolmatova, Z. A. "Methods Of Organization Of Project Activities In Future Teachers On The Basis Of Tutoring Skills." *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 7* (2021): 103-106.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Nottingham, UK

Date: 30th December, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

27. Исакова, Арофат Махкамовна, and Юлдузхон Ахадовна Шакирова. "САМОПОНИМАНИЕ РЕБЕНКА В СИСТЕМЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ." *Интернаука* 19-2 (2020): 42-44.
28. Mahkamovna, Isaqova Arofat. "STAGES OF REJECTION OF INNOVATIVE PROCESSES IN EDUCATION." *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.11 (2022): 74-76.
29. To‘xtasinova, Munira Ibragimovna, and Maftuna Dadajon qizi Po‘latova. "XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS) NING O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 19. 2022.
30. Ibragimovna, Tuhtasinova Munira. "SCIENTIFIC-THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF IMPROVING THE MECHANISMS OF USING INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS FOR INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY (BASED ON THE PIRLS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM)." (2022).